

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ 3 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРЬ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 3 (3)-2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодийёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети.

ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодийёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот

технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодири Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

“Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй.

Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Axmedov Jasurbek, Jabborova Gavharshod

QANQA ARXEOLOGIK YODGORLIGINI MUZEYLASHTIRISH MASALASI 9-14

Шухрат Эргашев

ФРАНЦИЯДА ИККИНЧИ РЕСПУБЛИКА ИНҚИРОЗИ ВА 1851 ЙИЛГИ ДАВЛАТ

ТЎНТАРИШИ 15-23

Касимова Шахноза Алишеровна

ПРИЕМЫ ЭФФЕКТИВНОЙ КОММУНИКАЦИИ В МУЗЕЙНОЙ ЭКСКУРСИИ 24-29

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Файзиева Ширин Шодмоновна

АГРОКЛАСТЕРЛАР ВА МАҲСУЛОТ ЕТИШТИРУВЧИЛАР ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИКНИНГ
ИҚТИСОДИЁТДА ТУТГАН ЎРНИ 30-35

Мусагалиев Ажунияз Жумагулович, Дустова Мухайё Худайбердиевна

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КОРХОНАЛАРИНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ БОРАСИДАГИ АЙРИМ
МАСАЛАЛАР 36-41

Murodova Nargiza Utkirovna

TURIZM MARKETING FAOLIYATIDA STRATEGIK BOSHQARUVNING AHAMIYATI 42-47

Kuchkarov Baxrom Kuziyevich, O'rmonov Xasanboy Haydarovich

КОМПАНИЯЛАРНИНГ МОЛИЯВИЙ ТО'ЛОВГА ЛАЙОҚАТСИЗЛИГИ ХАВФИНИ АНИҚЛАШ 48-55

Temirova Feruza Sagdullayevna

MARKETINGNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYASI -
BRENDING FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH 56-62

Sobirova Marhabo Haitovna

МЕВА-SABZAVOT KOOPERATSIYASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH
YO'LLARI 63-67

Mamajonova Gulasal Oribjon qizi

KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNING
SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI 68-77

Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich

О'ЗБЕКИСТОН ИҚТИСОДИЙОТИНИНГ РИВОЈЛАНИШИДА ИНВЕСТИЦИЯ РИСКЛАРИНИ
БОШҚАРИШ SAMARADORLIGINI OSHIRISH 78-87

Тўхтамишов Азиз Қаҳрамонович
КЛАСТЕР ЁНДАШУВИ АСОСИДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИНГ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ
МОҲИЯТИ, МАЗМУНИ ВА ТАМОЙИЛЛАРИ 88-101

Каржавова Хуршида Абдумаликовна
МАҲАЛЛА ТИЗИМИДА ИННОВАЦИОН ИЖТИМОЙ ХИЗМАТЛАР КўРСАТИШНИНГ
АСОСИЙ ЙўНАЛИШЛАРИ 102-110

Soliyev Dilmurod Jamolovich
AYLANMA MABLAG'LARNI SAMARALI BOSHQARISH KORXONA FAROVONLIGINING
ASOSIDIR 111-119

Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH
MASALALARI 120-130

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Тўраев Шавкат Нишонович
ЖАМИЯТ МАФКУРАСИ ИЖТИМОЙ САФАРБАР ЭТИШНИНГ АСОСИЙ ОМИЛИ 131-137

Qodirov Davronbek Hoshimovich
TASAVVUF TA'LIMOTINING NAZARIYOTCHISI – ABULQOSIM QUSHAYRIY 138-143

Sharipov Dilshod Baxshilloevich
TINCHLIKNING UNIVERSAL (DUNYOVIY) TARTIB BO'YICHA TAHLILI 144-148

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Гаппаров Алибек Қаршибоевич
ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ЛЕКСИКАНИНГ СОЦИОЛИНГВИСТИК АСПЕКТИ 149-155

Fayzieva Zuxra, Sharipova Yoqut Quدراتillayevna
APPLICATION OF GAME TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE TO THE BLIND
AND VISUALLY IMPAIRED 156-161

Ахмедшина Лилия Рафаэльевна
РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТОВ «МУЖ « И «ЖЕНА»
В ПОСЛОВИЦАХ И ПОГОВОРКАХ 162-166

Kholmuminova Makhliyo
DIFFERENCE BETWEEN MEANINGS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES 167-171

Shirinova Yekaterina
NUTQIY TAFAKKURNING PSIXOLINGVISTIK MUAMMOLARI 172-178

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

Қутлымуратов Фархад Қалбаевич

ЮРИДИК ШАХСНИ ҚАЙТА ТАШКИЛ ЭТИШДА СОЛИДАР
ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ 179-185

Kasimov Nodirjon Sodikjonovich

QASDDAN O'DIRISH JINOYATINING TUSHUNCHASI, TAVSIFI VA JINOIY HUQUQIY
XUSUSIYATLARI 186-196

Урманбаева Ферузахон Саттаровна

ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИКНИНГ ЗАРУРИЯТИ ВА МОҲИЯТИ 197-203

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Tursunaliyev Ilhomjon Axmedovich

“HAYOT DAVOMIDA TA'LIM” – JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARINI UZLUKSIZ
KASBIY RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEKANIZMI SIFATIDA (NAZARIY JIHATLAR
TAHLILI) 204-210

Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich

BO'LAJAK REJISSORLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA
TRENING MASHQLARINING AMALIY AHAMIYATI 211-217

Turdimurodov Dilmurod Yo'ldoshevich

YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA QAT'IYATLILIK SIFATINI JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA
TARBIYALASH 218-223

Бабаходжаева Наргиза Мухитдиновна

ОЛИЙ ТАЪЛИМДА ПЕДАГОГ КАДРЛАРНИНГ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ
ПСИХОЛОГИК-ПЕДАГОГИК ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ 224-229

Mengliqulov Xayrulla Aliqulovich

HARAKATLI O'YINLAR ORQALI 14-15 YOSHLI SUZUVCHLARNING JISMONIY SIFATLARINI
RIVOJLANTIRISH 230-236

Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi

ADVANCED PEDAGOGICAL EXPERIENCES IN ORGANIZING AND DEVELOPING THE
EDUCATIONAL PROCESS ON THE BASE OF DIGITAL TECHNOLOGIES 237-244

Yusupov Dilmurod Abdurashidovich

YADRO FIZIKASI BO'LIMLARINI O'QITISHDA INNOVATSION KOMPYUTER
TEKNOLOGIYALARINI QO'LLASH ORQALI TALABALAR FAOLLIGINI OSHIRISH 245-254

Ergashev Omonboy Turgunbayevich

TALABALARNING BADIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY ZARURATI VA
PEDAGOGIK ASOSLARI 255-260

<i>Ruzmetova Novval Vahabjanovna</i> THE ROLE OF FOLK TRADITIONS IN FORMING LEGAL CULTURE OF STUDENTS OF LAW SCHOOLS	261-269
<i>Raxmatov Otabek Urinbosarovich</i> BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARIDA MILLIY SPORT TURLARI ASOSIDA AMALIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	270-274
<i>Makhmudov Furqat Djumaboyevich</i> YORUG'LIK KVANT NAZARIYASINING VUJUDGA KELISHI. YORUG'LIK KVANTI MAVZUSINI O'QITISH USULLARI	275-281
<i>Бабахова Гулзиба Зиятбаевна</i> К ВОПРОСУ МЕТОДИКИ ИЗУЧЕНИЯ ТЕОРИИ АТОМОВ ВОДОРОДА ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ КУРСА КВАНТОВАЯ МЕХАНИКА	282-289
<i>Dexkanov Sherzod Abdumutalibovich</i> KAFEDRALARARO BITIRUV MALAKAVIY ISHLARINI TAYYORLASH – SIFATLI TA'LIMNI TA'MINLASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA	290-296
<i>Ҳакимова Муқаддас Ҳасановна</i> КОМПЕТЕНТЛИ ЁНДАШУВ АСОСИДА БЎЛАЖАК ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ-ПЕДАГОГИК ИЖОДКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ	297-301



**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари. -2023. -№ 3 (3).
ISSN: 2181-1342 (Online)
<https://scienceproblems.uz>**

13.00.00 – Педагогика фанлари

Dexkanov Sherzod Abdumutalibovich,
Farg'ona politexnika instituti Korrupsiyaga qarshi
kurashish "komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i.
e-mail: dehqonovsherzod@mail.ru, +998 90-290-05-00.

KAFEDRALARARO BITIRUV MALAKAVIY ISHLARINI TAYYORLASH – SIFATLI TA'LIMNI TA'MINLASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Annotatsiya. Bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlash va himoya qilish talabalarni oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning yakuniy bosqichi bo'lib, uning maqsadi bitiruv malakaviy ishlarida belgilangan aniq ijtimoiy-iqtisodiy vazifani mustaqil hal etish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni tizimlashtirish, chuqurlashtirish va mustahkamlashdir. Ushu maqolada bitiruv malakaviy ishlarini tashkiliy jihatlari ochib berilgan va yangicha tizimlashtirish taklif etilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim muassasalari, bitiruv malakaviy ish, malakali kadrlarini tayyorlash, ilmiy rahbar, bitiruvchi, mutaxassislik sohasi, yakuniy ish.

Дехканов Шерзод Абдумуталибович,
Ферганский политехнический институт
Начальник отдела управления системой
противодействия коррупции "Комплаенс контроль"

ПОДГОТОВКА МЕЖКАФЕДРЫННОЙ ВЫПУСКНОЙ КВАЛИФИКАЦИОННОЙ РАБОТЫ – КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ КАЧЕСТВЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. Подготовка и защита выпускной квалификационной работы является завершающим этапом обучения студентов в высших учебных заведениях, целью которого является систематизация, углубление и закрепление теоретических знаний и практических навыков для самостоятельного решения конкретной социально-экономической задачи, поставленной в выпускной квалификационной работе. В статье раскрываются организационные аспекты выпускной квалификационной работы и предлагается новая систематизация.

Ключевые слова: высшие учебные заведения, выпускная квалификационная работа, подготовка квалифицированных кадров, научный руководитель, выпускник, специальность, итоговая работа.

Dexkanov Sherzod Abdumutalibovich,
Fergana Polytechnic Institute Head of the Anti-corruption
system Management Department "Compliance Control"

PREPARATION OF INTERDEPARTMENTAL FINAL QUALIFICATION WORK – AS AN IMPORTANT FACTOR IN ENSURING QUALITY EDUCATION

Abstract. Preparation and defense of the final qualifying work is the final stage of students' education in higher educational institutions, the purpose of which is to systematize, deepen and consolidate theoretical knowledge and practical skills for the independent solution of a specific socio-economic task set in the final

qualifying work. The article reveals the organizational aspects of the final qualification work and suggests a new systematization.

Keywords: higher educational institutions, final qualification work, training of qualified personnel, supervisor, graduate, specialty, final work.



<https://doi.org/10.47390/1342V3I3Y2023N39>

Kirish. O'zbekiston Respublikasining barcha soha va tarmoqlarida raqobatbardosh, kreativ fikrlaydigan yosh kadrlarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Aksariyat tarmoqlarda kuzatilayotgan kadrlar qo'nimsizligi natijasida mehnat unumdorligini pasayishi, ishlab chiqarish samaradorligini tushib borishi kabi bir qator muammoli jarayonlarni kuzatish mumkin. Bu holat yetuk mutaxassis va o'z ishini ustasi bo'lmaganligi sababli turli xil salbiy voqealar sodir bo'lishi natijasida unib-o'sib kelayotgan yosh kadrlarning "sinib" qolishiga ham olib keladi. Binobarin kadrlar tayyorlash sohasida mamlakatda olib borilayotgan islohotlarga qaramasdan, ularni oliygohlarda mazkur sohada hozirga qadar "eski tizim"da ya'ni doimgi standart usulda ishlar davom etayotganligi sababli kadrlar muammosi hali hamon o'z yechimini yetarlicha topa olmayapti.

Bitiruv malakaviy ishini tayyorlashning maqsadi bitiruvchi talaba tomonidan davlat ta'lim standartlariga muvofiq profilaktika fanlari bo'yicha olgan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash hamda kengaytirish jarayonida tizimlashtirishdir [1; b 45].

Oliy ta'lim muassasalarining bo'lg'usi yuqori malakali kadrlarini tayyorlashda nazariya va amaliyotning uyg'unlashmaganligi, talabalarning malakaviy amaliyotlarini ishlab chiqarish korxonalarida o'tashlari nisbatan samarasiz tashkil etilganligi tufayli bitiruvchi talabalarning aksariyat qismi tayyor mutaxassis bo'lib chiqish o'rniga, ishga joylashgandan keyin qaytadan o'z kasbi yoki qo'shimcha boshqa mutaxassislik fanlarini o'rganayotganligi kundek ravshan. Shuningdek, ta'lim sifatini takomillashtirish va nazorat qilish tartibi jahon talablariga javob bermasligi, ta'lim muassasalari yohud korxon va tashkilotlarda malakali pedagog va boshqaruv kadrlarning yetishmasligi, xorijiy ta'lim muassasalari bilan samarali hamkorlik yetarlicha yo'lga qo'yilmaganligi natijasida raqobatbardosh yuqori malakali, har tomonlama barkamol, yetuk kadrlarni tayyorlashda tizimli ishlarni yo'lga qo'yishga ehtiyoj sezilmoqda.

Ta'lim muassasalaridagi bitiruvchi bosqich talabalarining "ilmiy rahbar + bitiruvchi" shaklida bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlashlari yuqorida aytib o'tilgan nuqsonlarni bartaraf etishda eskirib qolganligi, bitiruvchi faqatgina o'zining mutaxassisligi bilan cheklanib qolayotganligi, uning dunyoqarashi, ko'p qirrali mutaxassis bo'lib shakllanishida yetarli bilim bermayotganligi, zamonaviy yuqori malakali kadrlar bilan raqobatlasha olmayotganligi ma'lum bo'lib qolmoqda.

Bitiruv malaka ishlarini bajarish va himoya qilishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- oliy kasb-hunar ta'limi (mutaxassisligi) yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lim muassasalarida olingan nazariy va amaliy bilimlarni tizimlashtirish, birlashtirish va kengaytirish;
- nazariy qoidalarni tanqidiy baholash va umumlashtirish, ko'rib chiqilayotgan muammolar bo'yicha talabaning o'z nuqtai nazarini ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantirish;
- ta'lim (mutaxassislik)yo'nalishi bo'yicha amaliy muammolarni hal qilishda olingan bilimlarni qo'llash;

- amaliy faoliyat uchun zarur bo'lgan mustaqil tahliliy va tadqiqot ishlarini rag'batlantirish;
- ilmiy tadqiqotning zamonaviy usullarini o'zlashtirish;
- bozor iqtisodiyoti sharoitida talabalarining amaliy faoliyatga tayyorligini aniqlash;
- jamoatchilik muhokamasi va ilmiy g'oyalar, takliflar va tavsiyalarni himoya qilish ko'nikmalarini taqdim etish.

Natija va muhokamalar. Muhandislik sohasida kadrlar tayyorlash va ularni kadrlar buyurtmachilari tomonidan qo'yilayotgan talablar asosida mehnat bozoriga taklif etish o'quv jarayonidagi attestatsiyalar tizimlarining tashkil etilganligiga bog'liq.

Oliy ta'limning birinchi bosqichi (bakalavriat) o'rta maktabning yuqori bosqichidan (High School) so'ng 4 yil davom etadi va har biri ikkita ikki yillik bosqichlarga bo'linadi. Dastlabki ikki yilda asosan umumta'lim fanlari (GER – General Education Requirements)) o'qitiladi va malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirgandan so'ng, talabaga muayyan daraja beriladi. Universitetlar va 4 yillik kollejlardan bir qatorida bunday darajani ikki yillik munitsipal kollejlardan ham berishadi [2; b 13].

Bitiruv malakaviy ish oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining yakuniy ishi bo'lib, uning asosida davlat attestatsiya komissiyasi davlat imtihonlari muvaffaqiyatli topshirilishi sharti bilan ta'lim darajasiga muvofiq malaka (daraja) berish to'g'risida qaror qabul qiladi [3].

Kollektiv loyihani loyihalash va yozish an'anaviy baholash shakllarida bo'lgani kabi alohida-alohida uzluksiz emas, balki o'qituvchi-repetitor bilan kamida ikki yil davomida uzoq muddatli aloqani ta'minlaydi, aslida kichik ijodiy guruhning tarkibi va qoidalariga muvofiq maslahatchi-ijrochi bilan. Mini-guruh sub'ekt-sub'ekt tizimidagi aloqa shaklini tasdiqlaydi. Bunday holda, shaxs va jamoaning o'zaro ta'sirining ba'zi barqaror modeli o'rganiladi va qabul qilinadi. U allaqachon o'rganilgan xatti – harakatlar turi sifatida amalga oshiriladi (va birinchi navbatda-kichik guruh tarkibidagi xatti-harakatlar) [4].

Bitiruvchi bosqich talabalarining malakasini aniqlash hamda attestatsiyadan o'tkazish ushbu jarayonning eng muhim qismi sanaladi. Oliy ta'lim muassasalarida bitiruvchilarni yakuniy davlat attestatsiyasidan o'tkazish yakuniy sinov bosqichi sanalib, talabalarining ta'lim davrida olgan bilimlarini baholabgina qolmasdan, ularning o'z kasbiga oid ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2009-yil 22-maydagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 160-sonli buyrug'iga asosan, mazkur jarayon tartibga solib kelinmoqda. Unga ko'ra, yakuniy davlat attestatsiyasi ayrim fan bo'yicha attestatsiya sinovi, ta'lim yo'nalishi bo'yicha fanlararo yakuniy attestatsiya sinovi yoki bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi ko'rinishida bo'lishi mumkinligi ko'rsatib o'tilgan.

Respublika OTMlarida bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi yakka tartibda bajarishga ko'nikib qolingan bo'lib, talabalar yakka tartibdagi ishi bilan himoyani amalga oshiradilar. Ko'p hollarda talaba ko'rsatilgan obyektning faqatgina o'ziga tegishli qismining loyihasini tayyorlaydi, obyektning boshqa qismlari esa e'tiborga olinmaydi. Mazkur jarayon talabada katta loyihalar bo'yicha jamoa bilan ishlash qobiliyatini shakllantirmaydi va faqatgina o'ziga tegishli soha bo'yicha ishlashga ko'nikma yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010-yil 9-iyundagi 225-sonli buyrug'ining 4, 5, 6-bandlariga muvofiq "Oliy ta'lim muassasalarida bakalavrlarning bitiruv malakaviy ishi"ni bajarishga qo'yiladigan talablar, bitiruvchi talabalarni kreativ fikrlashga o'rgatish, ijodiy ishlash, hal etilayotgan masalaning (muammoning) qo'yilish jarayonidan boshlab, uni to'la nihoyasiga yetkazish bo'yicha qaror qabul qilishda bo'lgan mas'uliyatni his etishga o'rgatish, zamonaviy ishlab chiqarish, iqtisodiyot, texnika va madaniyatning rivojlanishi sharoitida talabalarni mustaqil ishlashga tayyorgarligini ta'minlash, turli xil sohaga oid bilimlarga ega bo'lish, jamoaviy ishlash ko'nikmalariga ega bo'lish, yagona bitiruv malakaviy ishi mavzusi ostida har bir mutaxassislik chiqaruvchi kafedralarni integratsiyasini tashkil etish maqsadida kafedralararo bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlash tartibini yo'lga qo'yish tavsiya etiladi. Bunda talabalar katta loyiha doirasida o'z mutaxassisliklaridan kelib chiqib integratsiyalashgan tadqiqot ishlarini jamoada olib boradilar.

Bunda talabalar bitiruv malakaviy ish mavzusi, obyekt tasnifi hamda ta'lim yo'nalishlarining xususiyatlaridan kelib chiqib jamoaviy tayyorlaydilar. Mavzu amaliyotdagi real muammoga bag'ishlangan bo'lishi zarur [5]. Bu orqali mutaxassis chiqaruvchi kafedralar bitiruvchilarini hamkorligi yo'lga qo'yiladi va talabalarda jamoa bo'lib loyihalarda ishlash ko'nikmasi ortadi [6]. Shuningdek, birgalikda olib borilgan bitiruv malakaviy ish muvaffaqiyatli himoya qilinganidan so'ng, mazkur ishning loyihasi asosida yangi ish o'rinlari yaratish va o'zini-o'zi ish bilan ta'minlash bo'yicha tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish mumkin bo'ladi.

Bitiruv malakaviy ishlarini kafedralararo loyiha ko'rinishida bajarish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Dastlab birga ishlovchi kafedralarning konsorsiumi OTMning o'quv-uslubiy boshqarmasi tomonidan shakllantiriladi.

Ikkinchi bosqichda, konsorsium a'zolariga kafedralararo yig'ilish tashkil qilinadi.

Uchinchi bosqichda, yig'ilishda bitiruv malakaviy ishlarining mavzulari bo'yicha konsensusga erishiladi.

To'rtinchi bosqichda, konsorsium a'zolari tomonidan loyiha ko'rinishida jamoaviy tayyorlanadigan bitiruv malakaviy ishi uchun iqtidorli talabalar guruhidan iborat tarkib shakllantiriladi. Mazkur tarkib va mavzu bo'yicha OTM rektorining buyrug'i rasmiylashtiriladi.

Beshinchi bosqichda, talabalarning dastlabki uchrashuvi o'tkaziladi. Unda bitiruv malakaviy ish mavzusi, uni bajarish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar, har bir talabaning loyiha doirasidagi vazifalari, jamoa sifatida ishlash uchun uchrashuvlar jadvali hamda moddiy-texnik baza bo'yicha masalalar kelishib olinadi.

Oltinchi bosqichda, barcha talabalar o'zlariga birlashtirilgan vazifalar bo'yicha ishlarni davom ettiradilar va belgilangan jadval asosida uchrashib, duch kelgan muammolar, o'zaro tadqiqot ishlarini borishi haqida muhokamalar uyushtiradilar. Mazkur jarayonlarda ilmiy rahbarlarning ham qatnashishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yettinchi bosqichda, bitiruv malakaviy ishi yakunlanganidan so'ng, yakuniy uchrashuv o'tkaziladi va unda barcha talabalar o'zlari tomonidan bir vaqtda bajarilgan malakaviy ishlarni birlashtirib loyiha ko'rinishiga keltiradilar. Bunda har bir kafedra bitiruvchi talabalarini tayyorlangan loyihani o'z kafedralariga yaxlit ko'rinishida taqdim etadilar.


Sakkizinchi bosqichda, loyiha ko'rinishidagi bitiruv malakaviy ishni rasmiylashtirish ishlari amalga oshiriladi. Bunda an'anaviy tartibda har bir kafedra tayyorlagan qismi

belgilangan taqrizchilar tomonidan o'rganib chiqiladi. Yakuniy loyihani esa kafedra mudirlari ishtirokida ekspert baholanadi.

To'qqizinchi bosqichda, talabalar jamoasi birgalikda attestatsiya komissiyasi ishtirokida loyihaning o'zlariga tegishli qismi bo'yicha ketma-ketlikda himoya qiladilar.

O'ninchi bosqichda, muvaffaqiyatli himoya qilingan bitiruv malakaviy ishlarini loyiha ko'rinishida banki shakllantiriladi hamda tijoratlashtirib boriladi.

Jamoaviy tartibda tayyorlanib himoya qilingan bitiruv malakaviy ishlarini baholashda uni bitta loyiha hisobidan attestatsiya komissiyasi tomonidan baholanadi va har bir talabaga bir xil baholar qo'yiladi. Bunda jamoani birgalikda ishlab natijaga erishganligi, bitiruv malakaviy ishining sifati va to'g'ri rasmiylashtirilganligi, taqdimot sifati hamda talabalarning mazkur ish bo'yicha bilim darajalari baholashning asosiy mezonlari sifati qabul qilinadi.



1-rasm. Birgalikda bajarilgan bitiruv malakaviy ishlarni tayyorlash mexanizmi¹

Farg'ona politexnika institutida mavjud mutaxassis tayyorlovchi yo'nalishlar misolida Arxitektura yo'nalishi bitiruvchisi uy yoki binoni qurilishida loyihagini ishlab chiqsa, Bino inshootlari qurilishi – geodeziya, kartografiya, kadastr yo'nalishi bitiruvchisi tomonidan bino qurilishi uchun geologik va geodezik tekshirishlar, bino reja va qirqimi, bino bosh rejasini, fasadi, konstruksiyalari hisobi, bajariladigan ishlarning texnologik kartalari, muhandislik tizimlari, bino smeta hujjatlari tayyorlanadi.

Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji yo'nalishi bitiruvchisi uy yoki binoning kommunikatsiyasi va kanalizatsiya loyihalarini ishlab chiqadi. Shu bilan birga Iqtisodiyot yo'nalishi bitiruvchisi loyihaning Biznes – rejasini, buxgalteriya bitiruvchisi buxgalteriyasi, Menejment bitiruvchisi boshqaruv jarayonlarini, Metrologiya standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti ishlab chiqarishdagi sifat boshqaruvi jarayonlarini, Elektr

¹ Muallif ishlanmasi

energetikasi bitiruvchisi elektr manbai loyihasini, ya'ni barcha bitiruvchilar o'zariga tegishli qismini bajaradilar. Bu esa bir mavzu-loyiha ostida talabalarning bitiruv malakaviy ishi deb qabul qilinadi.

Bitiruv malakaviy ish himoyasi barcha mutaxassisliklar uchun bir vaqtda va bir joydan turib o'tkaziladi. Umumiy ishning natijasiga qarab barcha bitiruvchilarga attestatsiya uchun bir xil baho qo'yiladi. Shunda talabalar tomonidan bir xil yuqori baho olish istagida bir-birini motivatsiya qilish xohishi vujudga keladi.

Xulosa. Oliy kasbiy ta'limning asosiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirishning me'yoriy muddatiga muvofiq "bakalavr" malakasini (darajasini) olish uchun bakalavr ishi amalga oshiriladi; "mutaxassis" malakasini (darajasini) olish uchun tezis (diplom loyihasi) amalga oshiriladi; malaka (daraja) olish uchun "magistr", magistrlik dissertatsiyasi bajariladi. Bitiruv malakaviy ish muallifning ilmiy rahbar rahbarligida o'zi tomonidan shaxsan yozgan, muallifning adabiyot bilan ishlash, amaliy materialni umumlashtirish va tahlil qilish, kasbiy ta'lim dasturini o'zlashtirishda olingan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalardan foydalangan holda mahoratidan dalolat beruvchi ushbu mavzu bo'yicha mustaqil to'liq tadqiqot bo'lishi kerak.

Bitiruv malakaviy ish bitiruvchi tomonidan to'ldirilgan kurs ishlarini umumlashtirishga asoslangan bo'lishi va nazariy mashg'ulotning yakuniy davrida himoyaga tayyorlanishi mumkin. Bitiruvchi tomonidan tayyorlangan bitiruv malakaviy ish umumiy kasbiy, maxsus fanlar va mutaxassislik fanlari bo'yicha o'qish davomida olingan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni tizimlashtirish, mustahkamlash va kengaytirish qobiliyatidan dalolat berishi kerak; amaliyotda uchraydigan masalalar va muammolarni hal qilishda ushbu ishning yechimlaridan qo'llanishi kerak; talabaning mutaxassislik bo'yicha mustaqil amaliy ishlarga tayyorlanish darajasi shu omillar yordamida baholanishi lozim.

Shu bilan birgalikda talabaga ijodiy o'rganish va ma'lum bir mutaxassislikning dolzarb muammolarini hal qilish ko'nikmalarini singdirishi talab etiladi buning uchun, talaba tomonidan bitiruv oldi amaliyoti davomida shaxsan o'zi to'plagan materiallar asosida amalga oshiriladi. Bitiruv malakaviy ishni yakunlash va himoya qilish talabaning nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasini aniqlashga, uning ma'lum bir sohada diplomli (sertifikatlangan) mutaxassis bo'lish qobiliyatini sinab ko'rishga imkon beradi. Mutaxassisning yakuniy malakaviy ishining sifatiga, ayniqsa, ilmiy tadqiqotlar va amaliyotni umumlashtirish asosida o'zining ilg'or yechimini tanlash va asoslash ta'sir qiladi. Yuqorida keltirilgan ushbu omillarning barchasi bir bilan chambarchas bog'liq va yaqin aloqada hamda bir-birini to'ldiradi. Faqat ulardan tizimli foydalanish sifatning ijobiy dinamikasini ta'minlashga imkon beradi, bu esa ta'limni kelajagini belgilaydi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Mutaxassislikka kirish/ darslik.; Radjabov Abdurakhmon, Vaxidov Abdunabi Xudoyberdiyevich -T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2017-yil. – 292. bet.
2. Usmonov B.Sh., Xabibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2020-y., 120 bet.
3. Давлятшаев, А. А. (2021). Процессы Интернационализации и Их Роль в Развитии Межвузовских Отношений. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 2(11), 48-55.

4. Давлятшаев, А.А., & Жамолиддинова, М. (2022). Развития интернационализационных процессов образования в условиях расширения глобализационных взаимоотношений. *Gospodarka i Innowacje*, 22, 133-139.
5. Землякова Галина Михайловна (2016). Педагогическое проектирование в выпускной квалификационной работе. *Проблемы современной науки и образования*, (38 (80)), 90-93.
6. Санько А.М., & Борисова С.П. (2023). ОРГАНИЗАЦИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ. *Известия Самарского научного центра Российской академии наук. Социальные, гуманитарные, медико-биологические науки*, 25 (88), 42-48.



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/1342V3I3Y2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 3 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).